

UDK 101.395:322

KIBERBULLING VA UNING YOSHLAR HOYOTIGA TA'SIRI

Lutfullayev Abduvali Abdunabievich

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsenti

Abduvalilutfullayev8@gmail.com 90 175-42-07

Annotatsiya: Globallashuv jarayonlarida axborotga bo'lgan talablarning oshishi ko'plab mamlakatlarning, insonlarning o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'lida axborot xurujini qurol qilib olishga zamin yaratishi, shuningdek insonlar hayoti bir qismi onlayn dunyoga o'tdi. Afsuski, bezorilarning hayoti ham bu dunyoga ko'chdi. Bu esa Kiberbullingni keltirib chiqargani hamda ularni tasiriga tushmaslik uchun ota-ona nazorati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: onlayn dunyo, internet, kiberbulling, tarbiya, bola, oila.

CYBERBULLING AND ITS IMPACT ON THE LIFE OF YOUNG PEOPLE

Lutfullayev Abduvali Abdunabievich

Associate Professor of the Institute of Irrigation and Agrotechnologies

Abduvalilutfullayev8@gmail.com 90 175-42-07

Abstract: In the process of globalization, the increase in the requirements for information created the ground for many countries and people to use the information attack as a weapon to realize their interests, and part of people's lives moved to the online world. Unfortunately, the life of thugs has also moved to this world. This gives rise to cyberbullying and information about parental control to avoid its influence.

Key words: online world, internet, cyberbullying, parenting, child, family.

КИБЕРБУЛЛИНГ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЖИЗНЬ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ

Лутфуллаев Абдували Абдунабиевич

Доцент Института ирригации и агротехнологий

Abduvalilutfullayev8@gmail.com 90 175-42-07

Аннотация: В процессе глобализации рост требований к информации создал почву для того, чтобы многие страны и люди использовали информационную атаку как оружие для реализации своих интересов, и часть жизни людей перешла в онлайн-мир. К сожалению, жизнь головорезов тоже перешла в этот мир. Это порождает киберзапугивание и информацию о родительском контроле, чтобы избежать его влияния.

Ключевые слова: онлайн-мир, интернет, киберзапугивание, воспитание детей, ребенок, семья.

KIRISH.

Globalashuv jarayonlarida axborotga bo'lgan talablarning oshishi ko'plab mamlakatlarning, insonlarning o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'lida axborot xurujini qurol qilib olishga zamin yaratdi. Shu bilan birgalikda, inson ongini zaharlashga qaratilgan, ularning ruhiyatida agressivlik, tajavvuzkorli, vahshiylik kabi illatlarni uyg'otadigan turli yot g'oyalarning, milliy mentalitetimizga, urf-odat, an'analarimizga umuman mos kelmaydigan odatlar, pornografik axborotlar, turli xil yolg'on ma'lumotlar, mish-mishlarni tarqatilayotgani insonni ogohlikka chorlaydi. Bugungi kunda insonlar hayoti bir qismi onlayn dunyoga o'tdi. Afsuski, bezorilarning hayoti ham bu dunyoga ko'chdi. Bu esa Kiberbullingni keltirib chiqardi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar haqida yurtimizda va xorijda bir qancha fikrlar yuritilmoqda masalan: O'zbekiston prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning asarlarida (2021), I.A.Karimov (2008), Madraximova F.R. Globalashuv jarayonida "ommaviy madaniyat" tahdidlarining oldini olish masalalari (2017), Karimovna, N. Y. (2022), Ахмедова, М., & Нарметова, Ю. (2022). Ijtimoiy

tarmoqlardan kerib kelayotgan salbiy axborotlardan himoyalaniish, A.P. Erkayev (2018) bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada bugungi kunda onlayn dunyo yoshlar hayotiga ta'siri va oqibatlari keltirilgan. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. ijtimoiy tarmoqlar nimasi bilan o'ziga jalb qilishi va uning oqibatlari tahlili qilindi va rivojlangan davlatlar mezonlari bilan solishtirildi. Qaramlikni oldini olish bo'yicha tavsiyalar keltirib o'tildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Globalashuv jarayonlarida axborotga bo'lgan talablarning oshishi ko'plab mamlakatlarning, insonlarning o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'lida axborot xurujini qurol qilib olishga zamin yaratdi. Bugungi kunda hayot sur'atlarining jadallik bilan rivojlanishi xalqaro maydonda davlatlarga, xalqlarga, millatlarga hamda boshqa xalqaro huquq subyektlariga erkin hamkorlik qilish imkonini bermoqda. Ammo hayot sur'atlarining jadallik bilan rivojlanishining salbiy jihatlari vaqt o'tgani sayin tobora ko'zga tashlanmoqda. Hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan voqealar qisqa fursat ichida zamonaviy ommaviy axborot vositalari ta'sirida boshqa davlatlarga tarqalmoqda. Buning oqibatida, mintaqa xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy tahdidlar vujudga kelmoqda. Shunindek, inson ongini zaharlashga qaratilgan, ularning ruhiyatida agressivlik, tajavvuzkorli, vahshiylik kabi illatlarni uyg'otadigan turli yot g'oyalarning, milliy mentalitetimizga, urf-odat, an'analarimizga umuman mos kelmaydigan odatlar, pornografik axborotlar, turli xil yolg'on ma'lumotlar, mish-mishlarni tarqatilayotgani insonni ogohlikka chorlaydi.

Bugungi kunda insonlar hayoti bir qismi onlayn dunyoga o'tdi. Afsuski, bezorilarning hayoti ham bu dunyoga ko'chdi. Bu esa Kiberbullingni keltirib chiqardi.

Kiberbulling biz yuqorida sanab o'tgan barcha platformalarda sodir bo'ladi. Masalan: g'iybat tarqatish, ijtimoiy tarmoqlarda tahdidli xabarlar yuborish, xabarlar yoki elektron pochta orqali o'zini boshqa boladek ko'rsatish va uning

nomidan sharmandali materiallarni, shaxsiy fotosuratlarni joylashtirish; ko'pincha boshqa bolani kamsitish maqsadida shaxsning roziligisiz Internetga uning ma'lumotlarini joylashtirish kabi salbiy holatlar vujudga kelmoqda. Ilgari, bola o'yin maydonchasida zo'ravonlikni ko'rganida, ehtimol, faqat bir nechta tengdoshlari buni ko'rgan bo'lar edi. Endi bolaning eng shaxsiy ma'lumotlari internetga tarqalib ketgan bo'lishi mumkin va agar xabar qilinmasa va o'chirilmasa, doimiy mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, u juda doimiydir. Agar bola an'anaviy bezorilik nishoniga aylansa, uning uyi uning boshpanasiga aylanadi. Ammo raqamli platformalar doimo mavjud bo'lganligi sababli, kiberbulling qurbonlari o'zlarini taskinlash uchun biror narsa topish uchun kurashadilar. Farzandingiz Internetda haqorat qilinayotganini aniqlash juda qiyin. Bu onlayn tarzda sodir bo'ladi, shuning uchun ota-onalar va o'qituvchilar tinglash yoki e'tiborga olish ehtimoli kamroq. Internet xavfsizligi tashkiloti i-SAFE ma'lumotlariga ko'ra, onlayn zo'ravonlikka uchragan bolalarning yarmidan kamrog'i ota-onasi yoki boshqa kattalarga boshidan kechirganlarini aytib berishadi. 9 12-18 yoshli o'smirlarning 21 foizi zo'ravonlikka duchor bo'lgan va taxminan 16 foizi internetda haqoratlangan.

Kiberbulling uning qurboniga aylangan insonning ruhiyatiga jiddiy zarar yetkazadi.

U qanday narsalarni olib kelishi mumkin:

- Ojizlik hissi shakllanadi
- Tushkunlikka tusha
- Vahima hissi ortib ketadi
- Haddan tashqari ko'p uxlash yoki uyqusizlik(insomniya) shakllanadi
- Suitsid vasvasasiga tushishga kelib bo'ladi
- Qo'rquv iskanjasiga tushib qolishadi
- O'zlariga nisbatan ishonchlari pasayadi
- Yakkalanib qoladi
- Ijtimoiy izolyatsiya, do'stlar, oiladan voz kechish yoki ko'p vaqtni yolg'iz o'tkazish

- Maktabdagi baholari pasayib ketadi
- Oila a'zolari va do'stlari bilan bo'lgan munosabatlarda muammolar paydo bo'ladi
- O'ziga jismoniy zarar yetkazish haqidagi fikrlar va urinishlar paydo bo'ladi
- Alkogol va narkotikka qaram bo'lib qolishadi
- Jizzaki, jaxli tez va gap ko'tarmaydigan bo'lib qolishadi

Oila va oilaviy munosabatlar, barkamol avlod ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, shaxs, millat ma'naviyatining shakllanishi hamda istiqbolini belgilovchi ijtimoiy asos ekanligini, oilaning ma'naviy madaniyatni shakllantirish bilan bog'liq funksional vazifalarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hech qachon unitmaslik kerak: ma'naviyat-bu avvalo, insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlaridir. Bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat-jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning mazmunini va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo'ladi[1].

Bola ishonuvchan, sodda bo'ladi. U nav-nihol chog'ida yon-atrofida ro'y beradigan voqea-hodisalar ta'sirida ulg'ayadi, dunyoqarashi shakllanadi. Chunki ular kelajagimiz vorislari. Bolalar esa jamiyatga munosabati, tarbiyani faqat maktabdan emas, oiladan, ko'chadan, mahalladan, to'y-marosimlardan oladi. Ana shuni unutmagan holda biz, hammamiz – qayerda bo'lmaylik, qaysi kasbda ishlamaylik, bolalar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirishimiz kerak. "...qayerda yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi"[4]. Tarbiya ma'naviy hayotning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Tarbiyaning barcha shakllari ma'naviyatga oid hodisadir, chunki u inson ongi va tafakkuriga ta'sir ko'rsatish, uning aniq amaliy, kasbiy yoki g'oyaviy-etiqodiy bilim berish, nimanidir o'rganish, nimagadir ixlos qilishni, ezgulik, go'zallik adolat kabi yuksak ideallarni, ishonchni qaror toptirish orqali insonni o'zini inson

sifatida shakllantiradi. “Tarbiya aqliy mehnat turi, ma’naviy ishlab chiqarish sohasidir”[5] deydi A.Erkayev.

“Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. Lekin tarbiya degani faqat maktab tarbiyasidan iborat emas. Hozir hammamiz bor aybni maktabga ag‘darishga o‘rganib qolganmiz. Mahalla, oila, keng jamoatchilik-chi? “Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona” degan maqolning haqiqiy ma’nosini anglaydigan vaqt keldi. Anglab, shu asosda yashaydigan vaqt keldi”[3]. Shu o‘rinda Kiberbulling oldini olish va javob strategiyalari ishlab chiqish zarur. Ular:

- Yoshlarni raqamli fuqarolik, empatiya va texnologiyalardan mas’uliyat bilan foydalanishga o‘rgatish juda muhimdir.

- Maktablar, ota-onalar va jamoalar onlayn faoliyatni faol ravishda kuzatib borishlari va kiberbullingga qarshi aniq siyosatni o‘rnatishlari kerak.

- Jabrlanuvchilar dalillarni saqlashga, hodisalar haqida hokimiyatga xabar berishga va ruhiy salomatlik yordamidan foydalanishga undashlari kerak.

- Bu muammoni samarali hal qilish uchun maktablar, oilalar, texnologiya kompaniyalari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Davlatimiz rahbari shunda ta’kidlaydi. “Jamiyatimiz, yoshlarimiz ma’naviyati, g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas’ul deb bilgan insonlar - bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo‘ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta’sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo‘ladimi - ularning barchasi ayniqsa faol bo‘lishlari lozim. Afsuski, biz bu masalalarda uxlab o‘tiribmiz. Gapning ochig‘i shu: uxlab o‘tiribmiz. Dushman esa o‘z ishini qilayapti. Ba’zi o‘rinlarda hatto maqsadiga ham erishayapti”[3]. Yoshlar tarbiyasi zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirib borilishi kerak (Aynan shu tufayli yoshlar jamiyat

taraqqiyotini harakatlantiruvchi qudratli kuchga aylanadilar). “Bu borada mamlakatimizda mavjud axborot resurs markazlarining yoshlar ongiga chuqur ta’sir etishini tahlil etish; o’smirlar ruhiyatiga xos, milliy madaniyat bilan boyitilgan ko’rsatuvlar, Internet saytlari ishlab chiqish; yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish hamda milliy madaniyat ruhida tarbiyalashga qaratilgan optimistik axborotlar ma’lumotlar tayyorlash”[2]. Bizga ma’lumki, hozirgi kunda dunyodagi har qanday davlatning obro’si va nufuzi, kuch-qudrati, uning moddiy boyliklari, iqtisodiy taraqqiyoti, harbiy quvvati bilan emas, balki avvalo, yuksak ma’naviy salohiyati bilan ham belgilanadi. Xalqning, millatning ma’naviy-ma’rifiy boyligi esa har tomonlama yetuk iste’dodli va qobiliyatli, axloqli va bilimli yoshlar tomonidan rivojlantiriladi. Lekin shunday bo’lsada masalaning yana bir tomoni hozirgi tez sur’atlar bilan dunyo hamjamiyatida rivojlanib borayotgan davlatlarning barkamol avlod tarbiyasida ularga salbiy ta’sir qilishi mumkin bo’lgan omillardan doimiy ravishda himoyalash dolzarb masaladir. Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o’ta muhim masala borki, unga alohida to’xtalib o’tish zarur. U ham bo’lsa, unib-o’sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog’liqdir. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatdan ham yo najot, yo halokat, saodat, yo falokat masalasidir va o’z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo’qotmaydigan, ta’bir joiz bo’lsa, masalalarning masalasidir[2].

Darhaqiqat, shaxs ma’naviy va siyosiy saviyasi, tafakkuri demokratik o’zgarish sur’atlari bilan mos bo’lsa, boshqaruvni demokratlashtirishga zamin yaratadi. Shuning uchun ham yangi demokratik jarayonni chuqurlashtirish hamda ularni hayotga tatbiq etishni eng avvalo jamiyatimizning o’zi tushunib yetmog’i va hal qilmog’i darkor. Bu borada jamiyatning asosiy bo’lgan mahallaning o’rni va o’zini o’zi boshqarish tartibini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSALAR.

Umuman xulosa qilsak, bugungi kunga kelib internet juda ochiq va ommaviy bo’lganligi sababli, u bolalar uchun mo’ljallanmagan materialga duch kelishi mumkin bo’lgan joy, ular uchun qayg’uli, chalkash yoki stressli kontent.

“Nomaqbul kontent” har xil odamlar uchun har xil narsalarni anglatishi mumkin, uyatdan tortib zo‘ravonlik yoki jinsiy tabiatgacha. Bu oson emas, lekin oxir-oqibat siz bolalaringiz bilan ular internetda ko‘rishlari mumkin bo‘lgan narsalar haqida suhbatlashishingiz kerak bo‘ladi.

Ko‘pgina bolalar, ehtimol, ko‘rmasligi kerak bo‘lgan narsalarni ko‘rganlarida, ota-onalari ulardan g‘azablanib, qurilma yoki internetga kirish huquqini olib qo‘yishidan qo‘rqib, ota-onasining oldiga bormaydilar. Farzandingiz sizga bunday mavzu bilan murojaat qilsa, eng yaxshi narsa xotirjamlik bilan javob berish va suhbatga ochiq bo‘lishdir. Agar mavzu jinsiy aloqa bo‘lsa, bolangiz, ayniqsa, ota-onasi bilan bunday mavzularda gaplashganda, uyaladi. Bolalarga ota-onasi ular uchun borligingizni va har qanday savollarga ularni hukm qilmasdan javob berishga tayyor ekanligingizni bildirishi lozim. O‘smirlar turli sabablarga ko‘ra jinsiy kontentni onlayn ko‘rishlari mumkin. Ular buni xatto bilan ko‘rgan bo‘lishi mumkin, bir do‘sti ularga yuborgan yoki ular tabiiy qiziqish tufayli buni o‘rgangan bo‘lishi mumkin. Iste’dodsiz farzand bo‘lmaydi, e’tiborsiz ota-onalar bor, xolos! Ayrim ota-onalar uchun farzandlariga internet va kompyuter texnologiyalari bo‘yicha yordam berish juda qiyin, chunki ular odatda ota-onalariga qaraganda internet va kompyuterdan foydalanish haqida ko‘proq ma’lumotga ega. Shu sababli, ota-onalar farzandlariga juda ehtiyot bo‘lishlari kerak. Aks holda, bolalar internetda yuzaga keladigan xavf-xatarlarga duchor bo‘lishlari (jinsiy zo‘ravonlik, pornografiya, jinoiy tashkilotlar faoliyati) yoki internetga qaram bo‘lib qolishlari mumkin.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g’oyamizning poydevoridir.- Toshkent: Tasvir, 2021. - b.13
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –Toshkent: O’zbekiston, 2018. - b.195
3. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. - б.486.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 116.
5. Erkayev A.P. Ma’naviyatshunoslik (2-tom). -Toshkent: Ma’naviyat, 2018.- b.323.
6. Lutfullayev A. “Influence of virtuality on human spiritual world” American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2023. b-45-48.
7. Madraximova F.R. Globallashuv jarayonida “ommaviy madaniyat” tahdidlarining oldini olish masalalari // Falsafa fanlari bo’yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent: 2017. - b.15
8. Karimovna, N. Y. (2022). Yoshlarda internetga tobelik muammolari. ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(12), 96-99.
9. . Ахмедова, М., & Нарметова, Ю. (2022). Neyropedagogika va neyropsixologiya rivojlanib kelayotgan yangi fan sohasi sifatida. Общество и инновации, 3(2/S), 103- 109.
- 10.Ермолаева Т.В., Савицкая Н.В. Буллинг как групповой феномен: исследование буллинга в Финляндии и скандинавских стран за последние 20 лет (1994-2014) // Современная зарубежная психология. 2015. Т.4, №1. С. 65-90.
11. Бочавер, А. А. Буллинг как объект исследований и культурный феномен / А. А. Бочавер, К. Д. Хломов // Психология. –2013. –№ 3. –С. 149–159.
12. Krivtsova S.V. Shkolnyy bulling: proyasnienie ponyatiy / S.V. Krivtsova, A.N. Shapkina, M.P. Maligina // Voprosy psixologii. – 2019. – №3. – S. 17–28